Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.512.133

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

O‘zbek tilida barmoq, yoqa, og‘iz komponentli hayratni ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari

Xayrulla Lutfulla o’g’li Toshquvvatov*

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti

✉ xayrullatoshquvvatov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek tilida hayratni ifodalovchi barmoq, yoqa va og‘iz komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq qilingan. Tadqiqotda tavsifiy, semantik va lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanilib, “yoqasini ushlamoq”, “hayrat barmog‘ini tishlamoq”, “og‘zi ochilib qolmoq” birliklarining lug‘aviy ma’nosi, emotsional intensivligi, ekspressivligi hamda badiiy matndagi funksional xususiyatlari o‘rganildi. Tahlil uchun Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Alisher Navoiy asarlari va Hojiakbar Shayxovning “Iblis bilan muloqot” asaridagi misollar tanlab olindi. Natijalar ushbu frazeologizmlarda hayratning bevosita nomlanmasdan, insonning jismoniy harakati va fiziologik reaksiyasi orqali konseptuallashtirilishini ko‘rsatdi. “Yoqa” komponenti beixtiyor ta’sirlanishni, “barmoq” kuchli hayratni, “og‘iz” esa hayratning tashqi somatik belgisini ifodalaydi. Xulosa qilib, mazkur birliklar o‘zbek tilida hayratni obrazli, ekspressiv va milliy-madaniy jihatdan ifodalashning muhim vositasi bo‘lib, xalqning emotsional tajribasi va obrazli tafakkurini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar

hayrat, frazeologik birlik, lingvomadaniyat, somatik, ekspressivlik.

DOI: 10.5281/zenodo.23278377

Toshquvvatov Xayrulla Lutfulla o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Toshkent, O‘zbekiston

xayrullatoshquvvatov@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-7067-9135

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tilida hayratni ifodalovchi barmoq, yoqa va og‘iz komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq qilingan. Tadqiqotda tavsifiy, semantik va lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanilib, “yoqasini ushlamoq”, “hayrat barmog‘ini tishlamoq”, “og‘zi ochilib qolmoq” birliklarining lug‘aviy ma’nosi, emotsional intensivligi, ekspressivligi hamda badiiy matndagi funksional xususiyatlari o‘rganildi. Tahlil uchun Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Alisher Navoiy asarlari va Hojiakbar Shayxovning “Iblis bilan muloqot” asaridagi misollar tanlab olindi. Natijalar ushbu frazeologizmlarda hayratning bevosita nomlanmasdan, insonning jismoniy harakati va fiziologik reaksiyasi orqali konseptuallashtirilishini ko‘rsatdi. “Yoqa” komponenti beixtiyor ta’sirlanishni, “barmoq” kuchli hayratni, “og‘iz” esa hayratning tashqi somatik belgisini ifodalaydi. Xulosa qilib, mazkur birliklar o‘zbek tilida

hayratni obrazli, ekspressiv va milliy-madaniy jihatdan ifodalashning muhim vositasi bo‘lib, xalqning emotsional tajribasi va obrazli tafakkurini aks ettiradi.

Til insonning borliqni idrok etishi, unga munosabat bildirish va hissiy tajribasini ifodalashining asosiy vositalaridan biridir. Ayniqsa, emotsional holatlarni ifodalovchi til birliklari til va madaniyat munosabatini o‘rganishda muhim material bo‘lib xizmat qiladi. Zero, emotsiyaning o‘zi inson uchun tabiiy va umumiy psixofiziologik hodisa bo‘lsa-da, uning tilda qanday nomlanishi, obrazlashtirilishi va kommunikativ jihatdan ifodalanishi muayyan til jamoasining tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq [6]. Shu jihatdan frazeologik birliklar emotsional holatlarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash uchun alohida ahamiyatga ega. V.A. Maslova lingvomadaniyatni til va madaniyatning o‘zaro aloqasi asosida shakllanuvchi fan sifatida izohlar ekan, tilda madaniy mazmunning aks etishi, saqlanishi va avloddan avlodga uzatilishiga alohida e’tibor qaratadi [9]. Frazeologik birliklar aynan shunday madaniy axborotni ixcham va obrazli shaklda saqlovchi til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. V.N. Telia ham frazeologik birliklarning faqat nominativ ma’no bilan chegaralanmasligini, balki ularda muayyan madaniy tajriba, baholash va pragmatik munosabatlar ham mujassamligini ta’kidlaydi [11].

O‘zbek frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida Sh.Rahmatullayevning tadqiqotlari alohida o‘rin egallaydi [10]. A.E. Mamatov esa o‘zbek frazeologizmlarining shakllanishi, frazeologik va leksik norma masalalarini tadqiq etish orqali ularning struktur-semantik xususiyatlarini chuqurroq yoritgan [8]. B.Yo‘ldoshev o‘zbek frazeologizmlarini funksional-uslubiy jihatdan o‘rganib, ularning turli nutq sharoitlarida qo‘llanish xususiyatlarini tahlil qilgan [7]. Hayratni ifodalovchi birliklar nuqtayi nazaridan bu qarashlar ayniqsa muhim, chunki mazkur birliklarning asosiy semantik xususiyati ko‘pincha ekspressivlik va obrazlilik bilan birga namoyon bo‘ladi. Hayrat insonning kutilmagan, noodatiy, tushunish qiyin yoki mavjud tajriba chegarasidan tashqaridagi hodisaga nisbatan yuzaga keladigan emotsional reaksiyasidir. O‘zbek tilida ushbu holat *hayratlanmoq, hayron bo‘lmoq, taajjublanmoq, ajablanmoq* kabi bevosita nomlovchi birliklar bilan bir qatorda, kuchli obrazlilikka ega frazeologik birliklar orqali ham ifodalanadi. Mazkur birliklarning o‘ziga xosligi shundaki, hayrat ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlanmaydi, balki insonning muayyan jismoniy harakati yoki tashqi fiziologik reaksiyasi orqali tasvirlanadi. Shu sababli hayratni ifodalovchi frazeologizmlar ichida *„og‘iz“*, *„yoqa“*, *„barmoq“* komponentli birliklar alohida guruhni tashkil etadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Og‘iz, yoqa va barmoq komponentli iboralar

Ibora	Lug‘atdagi ma’nosi	Obrazli asosi
og‘zi ochilib qolmoq	hayron bo‘lib, hang-mang bo‘lib qolish	tana a’zosi (og‘iz)
yoqasini ushlamoq	hayratda qolish, tong qolish	imo-ishora (yoqa)
hayrat barmog‘ini tishlamoq	nihoyat darajada hayron bo‘lish; hayratda qolish	tana a’zosi (barmoq)

O‘zbek tilida hayratning yuqori darajasini ifodalovchi birliklardan biri *yoqasini ushlamoq* frazeologizmidir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *yoqasini ushlamoq* frazeologizmi “hayratda qolmoq, tong qolmoq“ [4, 54] kabi ma’nolarda, ya’ni kutilmagan, tushunib bo‘lmaydigan narsa yoki hodisadan o‘ta darajada ta’sirlanib, taajjublanmoq tarzida tavsiflanadi. Frazeologizmning semantik markazida yoqa komponentining mavjudligi uni oddiy sinonimik birlikdan farqlantiradi. Bu yerda hayrat mavhum holat sifatida emas, balki insonning hayrat paytidagi jismoniy reaksiyasi sifatida tasavvur qilinadi. Mazkur birlikning lingvomadaniy jihati shundaki, unda kiyimga oid predmet hisoblangan „yoqa“ emotsional holatning ramziy belgisi sifatida gavdalanadi. Demak, ushbu frazeologizmning ma’nosini tushunish faqat uning tarkibiy qismlarining lug‘aviy ma’nolari bilan cheklanmaydi, balki til jamoasining an’anaviy kommunikativ tajribasi bilan ham bog‘liqdir. Shuning uchun *„yoqasini ushlamoq“* o‘zbek tilidagi hayratning milliy-madaniy jihatdan xoslangan ifoda vositalaridan biri sifatida baholash mumkin. Bu xususiyat badiiy matnda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Abdulla Qodiriyning O‘tkan kunlar romanida *„Otabekning mo‘jiza qabilidan so‘ng daqiqalarida ikkinchi qayta qutilishni ko‘rgan O‘tabboy qushbegi beixtiyor yoqasini ushladi“* shaklidagi qo‘llanish uchraydi [1, 125]. Ushbu kontekstda beixtiyor ravishi ham muhimdir, chunki u harakatning ongli ravishda bajarilganligini emas, balki kutilmagan vaziyat ta’sirida yuzaga kelgan tabiiy reaksiyani bildiradi. Demak, frazeologik birlik bu yerda shunchaki “hayron bo‘ldi” ma’nosini bermaydi. U qahramonning voqea ta’sirida qolganini, uning hayratining kuchli va darhol yuzaga kelgan emotsional reaksiya ekanini ko‘rsatadi.

Pirimqul Qodirovning Yulduzli tunlar romanida ham xuddi shu birlik ishlatiladi: *“Yo xudoyo tavba! — deb beixtiyor yoqasini ushladi.* [2, 170]. Bu o‘rinda *yoqasini ushlamoq* hayratni diniy undov *Yo xudoyo tavba!* bilan birga

ifodalab, emotsional holatning yuqori nuqtasini belgilaydi. Demak, *yoqa* komponenti o‘zbek lingvomadaniyatida oddiy kiyim detali bo‘lib qolmay, hayratning jismoniy ifodasi sifatida frazeologik birlikga aylangan.

Hayratning kuchli darajasini ifodalovchi yana bir somatik birlik *„hayrat barmog‘ini tishlamoq“* frazeologizmidir. Uning lug‘aviy ma’nosi “nihoyat darajada hayron bo‘lmoq, hayratda qolmoq” tarzida izohlanadi [5, 485]. Mazkur birlikda hayratning konseptuallashtirilishi barmoq va tishlamoq komponentlarining o‘zaro munosabati orqali yuzaga keladi. Frazeologizmning diqqatga sazovor jihati shundaki, “barmoqni tishlash” jismoniy harakati hayratning til birliklaridan biriga aylangan. Bunda insonning hayratdan o‘z harakatlarini odatdagidek boshqara olmay qolishi va noodatiy jismoniy reaksiya ko‘rsatishi asosiy obraz sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, hayrat yana bir bor fiziologik reaksiya orqali namoyon bo‘ladi.

Mazkur frazeologik modelning tarixiy ildizlari mumtoz o‘zbek adabiyotida ham uchraydi. Alisher Navoiyning quyidagi misralarida *barmog‘ini tishlab* birikmasi kuchli hayratlanishni bildiruvchi ibora sifatida talqin qilinadi:

„Necha dedim ul sanamg‘a bormag‘in,
Qilmadi ul tark oxir bormog‘in.
Munchalik xudroylik ko‘rgazdi ul,
Aql hayrat qildi, tishlab barmog‘in“ [3, 285]

Hojiakbar Shayxovning „Iblis bilan muloqot“ hikoyasidan olingan*“Yo tavba! — dedi Boltaboy hayrat barmog‘ini tishlab“* [12] misolda *hayrat barmog‘ini tishlamoq* va *Yo tavba!* birikishi tasodifiy emas. Birinchisi somatik obraz orqali hayratni ifodalasa, ikkinchisi verbal reaksiya orqali shu emotsiyani kuchaytiradi.

Hayratga oid yana bir keng tarqalgan ibora insonning yuzidagi fiziologik o‘zgarishlarni tasvirlash orqali yaratiladi. *Og‘zi ochilib qolmoq* iborasi og‘iz komponentli bo‘lib, hayratning yuzdagi jismoniy ifodasiga tayanadi. S.Nurovning, Maysalarni ayoz urmaydi asaridan olingan *„…og‘zi ochilib qolgan ayollarga hayrat bilan bir-bir qarab chiqdi“* [13] misolda og‘zi ochilib qolgan birikmasi hayrat bilan predikativ elementi bilan yonma-yon kelib, somatik holat va uning semantik izohini bir-birini to‘ldiruvchi tarzda ifodalaydi. Demak, badiiy matnning o‘zida fiziologik belgi hayratning tashqi ko‘rinishi sifatida talqin qilinmoqda.

Ushbu birliklarning struktur-semantik modeli quyidagicha ko‘rinadi: kutilmagan hodisa → kuchli emotsional ta’sir → fiziologik reaksiya → hayrat. Ushbu model *og‘zi ochilib qolmoq, yoqasini ushlamoq* va *hayrat barmog‘ini tishlamoq* bilan umumiy semantik asosga ega: uchala birlikda ham hayrat bevosita nomlanishdan ko‘ra, inson tanasidagi harakat yoki o‘zgarish orqali ifodalanadi. Biroq ular tananing turli qismlariga murojaat qilgani uchun hayratning turli obrazli ko‘rinishlarini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, yoqa, barmoq, og‘iz komponentlari orqali hayratning bir necha umumiy xususiyatlari ifodalanadi. Birinchidan, barcha birliklarda kutilmaganlik mavjud. Hayrat odatda odatiy kutilmadan chetga chiqqan voqea-hodisa natijasida yuzaga keladi. Ikkinchidan, ularda emotsional intensivlik mavjud bo‘lib, frazeologik birliklar oddiy hayron bo‘lmoq kabi neytral ifodalarga nisbatan kuchliroq ekspressivlikka ega. Uchinchidan, hayratning ichki holati tashqi somatik reaksiya orqali ko‘rsatiladi. Bu esa frazeologik birliklarga yuqori darajadagi obrazlilik va ekspressivlik beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘zbek tilidagi yoqasini ushlamoq, hayrat barmog‘ini tishlamoq, og‘zi ochilib qolmoq kabi frazeologik birliklar hayratning somatik va lingvomadaniy konseptuallashuvini yaqqol namoyon etadi. Tahlil qilingan badiiy matnlar bu frazeologik birliklarning tarixiy va funksional barqarorligini ham ko‘rsatadi. Ushbu frazeologik birliklar A.Navoiy ijodidan tortib A.Qodiriy, P.Qodirov va H.Shayxov asarlarida ham qo‘llanilganligi mazkur birliklarning hayratni ifodalashning ta’sirchan vositasi sifatida xizmat qilganligini ko‘rsatadi. Bu esa frazeologizmlarning milliy-madaniy xotirani saqlovchi, emotsional tajribani avloddan avlodga uzatuvchi va badiiy matnda milliy koloritni yuzaga keltiruvchi birliklar ekanini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar o‘zbek va ingliz tillarida hayrat leksikasining qiyosiy lingvomadaniy tadqiqi uchun ham nazariy asos bo‘la oladi. Xususan, keyingi bosqichda hayrat frazeologizmlarini intensivlik, diskurs va tarjimadagi ekvivalentlik mezonlari asosida qiyoslash istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. - Toshkent: Sharq nashriyot, 2004. - B.125.

[2] Qodirov P. Yulduzli tunlar. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. - B.170.

[3] Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi: eng qadimgi davrlardan XVI asr oxirigacha: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. - B. 281.

[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 2-jild. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - B.54.

[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5-jild. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. - B.485.

[6] Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. - Cambridge: Cambridge University Press, 1999. - P. 49-122.

[7] Йўлдошев Б. “Лайли ва Мажнун” достонида фразеологизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. - 2010. - № 2. - Б. 34–38.

[8] Маматов А. Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. - Тошкент, 1991.

[9] Маслова В. А. Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. - М.: Академия, 2001. - 208 с.

[10] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: фразеологик полисемия, синонимия, антонимия ва омонимлик: филол. фан. докт. ... дис. - Тошкент, 1966.

[11] Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Языки русской культуры, 1996 - 288с.

[12] https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/hojiakbar-shayxov-1945-2002/hojiakbar-shayxov-iblis-bilan-muloqot-hikoya (murojaat sanasi: 24.09.2026)

[13] https://izoh.uz/word/og%E2%80%98iz (murojaat sanasi: 24.09.2026).